

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.A.Abdualiyeva	Markaziy Osiyo o'rtta paleolit manzilgohlarining fanda o'rganilishi tarixi (I qism)	654
A.A.Nishonov	Farg'ona vodiysida Sevinchxojaxon va Sulton Saidxon kurashi	664
A.A.Aloxunov, B.B.Jo'raqulov	Tunkat tarixi yozma va arxeologik manbalarda	673
A.A.Nishonov	Sevinchxojaxon xonadoni tarixi manbalarda yoritilishi	677
R.X.Akbarov	Turkiston yevropalik aholi vakillarining davlat dumasidagi ishtiroki	681
R.X.Akbarov	Turkiston mahalliy vakillarining davlat dumasidagi ishtiroki	685
S.V.Yo'ldoshev	Xalq o'yinlarining tarixiy ildizlari va lokal xususiyatlari	691
A.M.Maxmudov	XX asrning 20-30 yillarda Buxoro amirligi muhojirlari taqdiri	695
A.M.Maxmudov	Usmon Xo'ja avlodlari qayerda?	698

ADABIYOTSHUNOSLIK

K.A.Topvoldiyev	Use of antonyms in Russian fiction and in religious self-consciousness	701
H.K.Сабиров	Средняя Азия в путевых заметках Ф.С.Ефремова	706
A.P.Косимов	Конвергенции наследия Т.Мурода с духовным богатством национальной и мировой культуры	710
H.A.Jo'rayev, Y.I.Nishanov	Yusuf qissasi syujetining sayyorlik omillari	715
H.M.Каримова	Отражение времени: концепция исторического романа в литературе	718
Y.I.Nishanov	Umuminsoniy g'oyalar ifodasida ijodiy ta'sirning o'rni	722
I.H.Доронина	«Отражение современных социальных реалий в современной Русской литературе»	726
Э.Ф.Гиздулин	Мотив пандемии в художественной постапокалиптической фантастике	729
X.Sharifiddinov	Zamon qiyofalangan tarixiy roman	732
E.Ibragimova, N.Sharafutdinova	Teonimik tushuncha ifodalovchi mifologik obrazlar	735
G.V.Abdullayeva	Lof she'rlar poetikasi va badiiy-estetik funksiyasi	738
S.A.Xodjayev, Ch.I.Turg'unova	O'zbek va jahon folklori namunalarida uchlik va beshlik timsollarining poetik kombinatsiyalari	745
X.A.Abdulxamidova, D.U.Jamoliddinova	Isajon Sulton hikoyalarida peyzajning badiiy ifodalanishi	749
X.J.Jamolova	Zullisonaynlik an'anasi va ijodiy ta'sir masalalari	752
M.M.Xamidov	O'zbek tarixiy romanlarida qahramon talqini masalasiga doir	755
R.M.Umurzakov	Bola obrazining nazariy muammolari	761
J.B.Sayidolimov	“Vasiyatnoma” – kichik agiografik asar	765



UO‘K: 930.01

**MARKAZIY OSIYO O‘RTA PALEOLIT MANZILGOHLARINING FANDA O‘RGANILISHI
TARIXI
(I qism)****ИСТОРИЯ НАУЧНОГО ИЗУЧЕНИЯ СРЕДНЕГО ПАЛЕОЛИТА СРЕДНЕЙ АЗИИ
(Часть I)****HISTORY OF SCIENTIFIC STUDY OF THE MIDDLE PALEOLITHIC OF CENTRAL ASIA
(Part I)****Abduvaliyeva Nozimaxon Abdushukur qizi** 

Farg‘ona davlat universiteti Jahon tarixi kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada Markaziy Osiyo o‘rta tosh davri tarixining jiddiy o‘rganilishi sobiq Ittifoq yillarida boshlanganligi, sovet davri arxeologlari o‘rta paleolit manzilgohlari haqidagi o‘z g‘oyalari qazishma jarayonlariga tadbiiq qilganligi haqida ayrim ma‘lumotlar berib o‘tilgan.

Аннотация

В статье приводятся некоторые сведения о том, что серьезное изучение истории среднего каменного века Центральной Азии началось в годы бывшего Советского Союза и что археологи советской эпохи применили свои представления о среднепалеолитических поселениях к процессу раскопок.

Abstract

The article provides some information about the fact that the serious study of the history of the Middle Stone Age of Central Asia began in the years of the former Soviet Union, and that the archaeologists of the Soviet era applied their ideas about the Middle Paleolithic settlements to the excavation processes.

Kalit so‘zlar: o‘rta paleolit, tosh qurollar, Obirahmat, Paltov, Bo‘zsuv g‘ori, G‘ishtsoy ustaxonalari, Zarafshon vodiysidagi Qo‘tirbulok, Zirabuloq, Omonqo‘ton, Takalisoy, Olmabuloq yodgorliklari, Uchtut ustaxonasi, o‘rta paleolitning so‘nggi bosqichiga oid Qizilqumdagi Yesen 2, Qoraquduq, Shaxpaxti, Ko‘kayoz 1, 2 va 3 yodgorliklari, Surxondaryodagi Teshik-Tosh, Amir-Temur g‘orlari, Ko‘lbuloqning o‘rta qatlamlari, Qizilolma 1, 2, Jarsoy, To‘palang suv ombori topilmalari.

Ключевые слова: Средний палеолит, каменные орудия, Обирахмат, Палтов, пещера Бозсув, мастерские Гишцої, Котырбулок, Зирабулок, Амонкотон, Такалисой, памятники Алмабулок в Зарафшанской долине, Учтутская мастерская, Есен 2, Каракудук, Шахпакти, Кокаїз 1, 2 и 3 памятника в Кызылкуме последнего этапа среднего палеолита, пещеры Тешик-Таш, Амир-Темур в Сурхандарье, средние слои Кольбулока, Кызылолма 1, 2, Джарсой, находки водоохранилища Топаланг.

Key words: Middle Paleolithic, stone tools, Obirahmat, Paltov, Bozsuv cave, Ghishtsoy workshops, Kotyrbulok, Zirabulok, Amonkoton, Takalisoı, Almabulok monuments in the Zarafshan valley, Uchtut workshop, Yesen 2, Karakuduk, Shakhpakhti, Kokayoz 1, 2 and 3 monuments in Kyzylkum of the last stage of the Middle Paleolithic, Teshik-Tosh, Amir-Temur caves in Surkhandarya, Middle layers of Kolbulok, Kyzylolma 1, 2, Jarsoy, Topalang reservoir findings.

KIRISH

O‘zbekistonda tosh davri yodgorliklarini tizimli ravishda o‘rganish deyarli bir asrdan beri davom etmoqda. O‘tgan vaqt davomida respublika hududida bir necha o‘nlab paleolit davri yodgorliklari aniqlandi. Topib o‘rganilgan yodgorliklar paleolitshunoslikdagi mavjud muammolar yechimi yuzasidan bir qator fikrlarni ilgari surish imkonini beradi. Respublika hududida o‘rta paleolit yodgorliklari nisbatan ko‘plab topib o‘rganilgan bo‘lib, ular asosan xomashyo manbalariga yaqin joylashgan.

Nazariy jihatdan o‘rta paleolit bundan 100 000 yillar avval boshlanib, to 36000 yillargacha davom etgan. Biroq, bunday sanalash Yevropa arxeologiya yodgorliklari materiallari asosida amalga oshirilgan bo‘lib, O‘rta Osiyo uchun o‘rta paleolitning mahalliy xronologik shkalasi ishlab

TARIX

chiqilmaganligi uchun qabul qilingan. O'zbekiston hududlari paleolitning o'рта bosqichiga oid yodgorliklarga boy hisoblanadi. Ularga Toshkent vohasida Obirahmat, Paltov, Bo'zsuv g'ori, G'ishtsoy ustaxonalari, Zarafshon vodiysidagi Qo'tirbuloq, Zirabuloq, Omonqo'ton, Takalisoy, Olmabuloq yodgorliklari, Uchtut ustaxonasi, o'рта paleolitning so'nggi bosqichiga oid Qizilqumdagi Yesen 2, Qoraquduq, Shaxpaxti, Ko'kayoz 1, 2 va 3 yodgorliklari, Surxondaryodagi Teshik-Tosh, Amir-Temur g'orlari, Ko'lbuloqning o'рта qatlamlari, Qizilolma 1, 2, Jarsoy, To'palang suv ombori topilmalari hamda yurtimizning turli hududlaridan yer sathidan yig'ib olingan aniqlangan o'nlab alohida topilmalarni misol sifatida keltirish mumkin.

O'рта paleolitga oid yodgorliklar Surxondaryoning Boysuntog' hududlaridan ham topilgan. Ular orasida eng mashhuri Teshik-tosh g'ori bo'lib, u Boysun shahridan 18 km shimolda, Machaydaryoning chap qirg'og'idagi Zavtaloshsoyning o'рта oqimida joylashgan. Machaydaryo Boysuntog'ning shimoliy- g'arbiy etaklaridan oqib o'tadi va u Amudaryoga quyiladigan Sheroboddaryoning chap irmog'i hisoblanadi. G'or kelloveyoksford tipidagi ohaktoshda hosil bo'lgan va hozirgi Machaydaryodan 500 m. chamasi yuqoriroqda joylashgan. Yodgorlikning dengiz sathidan balandligi 1800 m. ni tashkil qiladi. G'orning kirish qismidagi balandligi 7 m., eni esa 20 m. dan iborat [1].

ADABIYOTLARNING TAHLILI VA METODOLOGIYA

Teshik-tosh g'ori 1938-1939 yillarda A.P. Okladnikov tomonidan o'rganilgan va ikki yil davomida uning madaniy qoldiqlardan iborat bo'lgan 137 m² barcha maydon sathi to'liq ochib o'rganilgan. Yodgorlikda A.P. Okladnikov tomonidan sof yotqiziqalar bilan ajratilgan 5 ta madaniy qatlam aniqlangan. Bu qatlamlarning umumiy qalinligi 1,5 m madaniy qatlamlarning eng qalin joyi 40 sm. gacha yetadi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, yodgorlikning deyarli yarmi g'orga sizib tushgan qor-yomg'ir suvlari yordamida yuvib ketilgan. 50 kv. m maydonni egallagan 1-madaniy qatlamdan taxminan 1 diametrik gulxan aniqlanib, A.P. Okladnikovning ta'kidlashicha, olov bu yerda uzoq yonmagan, negaki, gulhan osti tuproqlari unchalik kuymagan. Neandertal bolaning qabri ham aftidan, 1-madaniy qatlam bilan bog'liq. Ikkinchi madaniy qatlamdan (maydoni 12 kv. m.) uzun tuxumsimon shakldagi (hajmi 1,6x0,6 m.) o'choq va uncha katta bo'lmagan gulhan topilgan. 3-madaniy qatlam ham 50 kv. m. maydonni egallaydi, biroq u g'orning kirish qismiga qarab cho'zilgan. Bu qatlamdan uchta o'choq topilgan bo'lib, ularning hajmi 0,4x0,4; 1,5x0,8 va 1x0,4 m. ni tashkil qiladi. 4-madaniy qatlamning (uning maydoni 30 kv. m) katta qismi ko'mir bo'laklari bilan quyuk qoplangan, 3x3 m. lik yumaloq maydonchaga ega. Bu maydonchanning markazida katta o'choq (2x1,3 m) joylashgan. Ikkinchi o'choqning diametri 0,5 m. bo'lib, birinchisidan 3 m masofada joylashadi. Quyi 5-madaniy qatlamdan (maydoni 15 kv. m) ikkita o'choq izlari aniqlangan. Yodgorlikning barcha qatlamlaridan olingan topilmalar: tosh buyumlar va faunistik qoldiqlar ana shu o'choqlar atrofida joylashgan.

Teshik-tosh O'рта Osiyoning faunistik materiallar saqlanib qolgan noyob yodgorliklaridan biridir [2]. Bu yerda sibir tog' echkisi suyak qoldiqlari ko'pchilikni tashkil qiladi (83%). Shuningdek, ot, qo'ng'ir ayiq, qoplon va taxminan, g'or shoqolining qoldiqlari aniqlangan. Kemiruvchilardan quyuk, kurka, sug'ur, ko'rsichqon, dala sichqon, turkiston kalamushi suyak qoldiqlari ham topilgan. Qatlamlar faunasi orasida deyarli farq sezilmaydi [3]. Bundan tashqari, Teshik-tosh qatlamlaridan 20 ga yaqin qushlarning suyak qoldiqlari aniqlangan [4]. Teshik-Toshning madaniy qatlamlaridan 2228 ta tosh buyumlar topib o'rganilgan. Ular asosan chaqmoqtoshlashgan ohaktoshdan ishlangan bo'lib, tarkibida nukleuslar, qirg'ichlar, paykonlar, kesgichlar, retushlangan uchirindilar va plastinalar mavjud. Umuman, har beshala qatlamning industriyasi bir xil va o'zgarishsiz taraqqiy etgan.

Bugungi kunda yangi tadqiqotlar Teshik-Toshning madaniy qatlamlaridan topib o'rganilgan tosh buyumlarni qayta tahlil qilish va O'zbekiston hududida tosh xomashyosidan foydalanish strategiyasini alohida mavzu sifatida o'rganib chiqishni ta'qazo qilmoqda.

Bu borada alohida tadqiqotni 2023 yilda tadqiqotchi A.G'. Muhammadiyev amalga oshirdi. U "O'рта paleolit davri xomashyodan foydalanish strategiyalari (Muzbel, Xatak va Angillak yodgorliklari materiallari asosida)" mavzusida ilmiy ishini himoya qildi [5].

NATIJA VA MUHOKAMA

Xomashyodan foydalanish borasidagi dastlabki xulosalar 1938-39 yillarda A.P. Okladnikov tomonidan Teshik-tosh g'or-makonini o'rganishda bildirilgan. Teshik-tosh g'or-makonida asosiy

xomashyo sifatida to'q kulrang chaqmoqlashgan ohaktosh ishlatilgan. Undan sifatlilik jihatidan farq qiluvchi, sarg'ish-jigarrang chaqmoqlashgan ohaktosh ham mavjud bo'lgan. Shuningdek manzilgohda och yashil rangdagi yashma, yashil rangdagi kvarsit, hamda kvarsdan foydalanilgan. A.P. Okladnikov fikricha barcha xomashyo turlari mahalliy bo'lib, uning manbai Boysuntog' tizmasi va daryo o'zani yotqiziqlarida joylashgan bo'lishi mumkin.

Tadqiqotchi sifatli xomashyodan foydalanish borasida juda qiziqarli fikrlarni ilgari suradi. Sifatli xomashyo bo'lgan "haqiqiy" chaqmoqtoshdan bir dona qurol, sarg'ish-jigarrang chaqmoqlashgan ohaktoshdan esa bir dona nukleus topilgan. Manzilgohda sifatli va kam uchrovchi xomashyoni tejashga harakat qilingan. Yashma va kvarsitdan yasalgan uchrindilardan doimiy ravishda qurollar yasalgan, hamda ular o'zining kichik xajmi bilan ajralib turgan. Ushbu xomashyodan tayyorlangan tanovarlarga kamdan-kam hollarda ikkilamchi ishlov berilmagan. Aftidan ularning barchasi qurol tayyorlashda ishlatilgan va yaxshi qurollar yasalgan. Kvarsit va asosan yashil yashmadan eng yaxshi paykonlar, hamda kichik, lekin shakliga ko'ra chiroyli qirg'ichlar yasalgan. Singan qurollar, masalan paykonlar tashlab yuborilmagan balki qayta retushlanib, odatda qirg'ichlarga aylantirilgan. Yashil tusli yashmadan nukleuslar uchramasligi, ular to'liq holda foydalanilgan bo'lishi mumkinligi aytib o'tiladi [6].

A.G'.Muhammadiyevning ta'kidlashicha, Teshik-toshda foydalanilgan xomashyo manbai borasida ilgari bildirilgan fikrlar to'liq asoslanmagan. Asosiy xomashyo hisoblangan to'q kulrang chaqmoqlashgan ohaktosh, g'or devorlari shakllangan ohaktoshga o'xshashligi va Boysuntog' tizmasi yotqiziqlaridan olingan bo'lishi mumkinligi, daryo o'zanlaridan olingan, lekin hozirgi vaqtda Turgandaryo o'zanida uchramaydigan kvars, kvarsit va yashmaning manbai Boysuntog'dan shimol va shimoli-sharqda joylashganligi taxmin qilinadi.

A.P. Okladnikov tomonidan xomashyo turlaridan foydalanish hamda madaniy qatlamlardagi o'zgarish holati bo'yicha statistik tahlil yuritilmagan. Shu bilan birga foydalanilgan qurollarga qayta ishlov berish va ularni qayta ishlatish yuzasidan qayd etilgan holatlar ham tadqiq etilmagan. A.G'.Muhammadiyevning xulosasiga ko'ra, bu holatlarning qanchalik darajada izchilligi va an'anaga aylanganligini aniqlash, xomashyodan foydalanish masalasida hududga xos xususiyatlarni tushunish imkonini berishi mumkin [7].

Makonning tosh industriyasi turli tadqiqotchilar tomonidan turlicha tipik muste [8], Obiraxmat [9] hamda sharant muste [10] madaniyatlariga ajratilgan. Teshik-tosh g'ori madaniy qatlamlarining sanasi borasida ham turli fikrlar yuzaga kelgan. Ayrim adabiyotlarda uning sanasi 100 ming yillar bilan belgilansa [11], boshqa mutaxassislar yodgorlik uchun o'rta paleolitning ikkinchi yarmiga oid sanani taklif etishgan [12]. Tadqiqot uslublarining taraqqiy qilib, tosh davri arxeologik tadqiqotlariga bir qator aniq fanlar uslublarining yordamga kelishi munosabati bilan hozirda yodgorliklardan olingan na'munalarni sanalash imkoniyatlari kengayib bormoqda. Biroq, Teshik-tosh makoni madaniy yotqiziqlaridan bunday na'munalar olishning imkoni yo'q, negaki, yodgorlik to'laligicha qazib tugatilgan.

Boysuntog'dagi o'rta paleolit davriga oid ikkinchi yodgorlik bu Amir Temur g'oridir [13]. U uncha katta bo'lmagan shu nomli soyda, Teshik-Toshdan 1,5 km. shimolroqda joylashgan. Yodgorlik V.F. Lomayev tomonidan ochilgan va 1938-1939-yillarda A.P. Okladnikov tomonidan o'rganilgan. G'orda uchta madaniy qatlam aniqlangan bo'lib, chuqurligi 1 m. gacha yetadigan 3-qatlamdan kam sonli tosh buyumlar yig'ib olingan. Ular orasida prizmasimon nukleus va yirik qirg'ich mavjud. Ushbu qatlamdan archaga taalluqli ko'mir qoldiqlari topilgan. A.P. Okladnikovning fikricha, Amir-Temir g'orining 3-qatlami Teshiktoshning ayrim qatlamlari bilan tengdosh hisoblanadi. Biroq bunday deyish uchun asosli isbotlar haligacha yo'q.

O'rta paleolitga oid deb topilgan Boysuntog'dagi yana bir yodgorlik Kattaqo'rg'on bo'lib, u Teshiktoshning qarama-qarshisida, Machaydaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan. Bu yerda dastlabki qazishmalar 1930-yillarda G.V. Parfyonov tomonidan amalga oshirilgan. Qazishmadan olingan materiallar bilan tanishib chiqqan A.P. Okladnikov, ularni Teshik-toshdagi materiallarga o'xshash, deb topgan [14]. Muzeydagi yodgorlik materiallari bilan tanishib chiqqan V.A. Ranov esa, qarama-qarshi fikrga keladi va u ushbu tosh ayvonda o'rta paleolitga oid qatlamlar yo'q, deb hisoblaydi [15].

Toshkent vohasidagi Obiraxmat va Ko'lbuloqning o'rta paleolitga xos madaniy qatlamlari mazkur davrga oid makonlarga nisbatan yaxshi o'rganilgan hisoblanadi. Bo'zsuv atrofidan bu

TARIX

davrga oid ashyolar topilgan lekin xanuzgacha materiallari chop etilmagan, Paltov g'oridagi tadqiqotlarda kam artefaktlar qo'lga kiritilgan. Ohangaron vodiysidagi Qizilolma 1, 2, Jarsoy 1 va G'ishtsoydan topilgan ashyolar to'raligicha hali o'rganilmagan.

Obiraxmat g'or manzilgohi [16] Toshkent shahridan 100 km shimoli- sharqda, Chotqol va Pskom daryolari quyilishiga yaqin joyda joylashgan. Yodgorlikning dengiz sathidan balandligi 1250 m. G'or janub tomonga qaragan bo'lib kirish qismi eni 20 m., chuqurligi 9 m. va balandligi esa 11,8 m. ni tashkil qiladi. Manzilgoh 1962 -yili A.R. Muhammadjonov tomonidan kashf etilgan. Yodgorlikda qazish ishlarini dastlab X.K. Nasriddinov, boshlab bergan 1964-1965 yillar mobaynida R.X. Sulaymonov tomonidan qazib o'rganilgan. O'sha paytlardagi qazishmalarning umumiy maydoni 60 m² bo'lib, madaniy yotqiziqqlarning qalinligi 2 m. gacha yetadi. O'tgan asrning 90-yillarida yodgorlikda O'zbekiston-Rossiya arxeologik ekspeditsiyasi qazish ishlarini boshladi. Natijada, Obiraxmatning tosh industriyasi o'rta paleolitning oxiri hamda so'nggi paleolitning boshlanishi davriga oid deb topildi va Markaziy Osiyo paleolitshunosligida birinchi marta "ilk so'nggi paleolit" iborasi fanga kiritildi. Ma'lumki, fanda xomo sapiyens sapiyens, ya'ni zamonaviy odamning paydo bo'lishi hamda shuning bilan birga so'nggi paleolit davrining genezisi masalalari hozirgacha katta muammo bo'lib qolmoqda. Shuning uchun mutaxassislar tomonidan so'nggi paleolit odami va davrining paydo bo'lishi ildizlarini izlash tabiiy hol va juda dolzarb masaladir [19].

Zamonaviy odamlarga jismoniy tipi jihatidan eng yaqin gominidlar, ya'ni xomo sapiyens arxaiklar bundan 200 000 yillar muqaddam Markaziy Afrikada (Chad) paydo bo'lgani hamda bundan 100 000 yillar muqaddam bu odamlar Yaqin Sharq hududiga tarqalganligi fanda ma'lum [18]. Biroq ushbu gominidlar zvenosining keyingi taqdiri fanda aniqlangani yo'q. Shu tufayli, Obiraxmat g'ori materiallari birinchidan, Yaqin Sharqdagi (xomo sapiyens arxaiklarning) Kafzex, Kebara va Sxul yodgorliklari materiallariga o'xshashligi, ikkinchidan, xronologik jihatdan ulardan yoshroq bo'lganligi va uchinchidan, geografik jihatdan Yevropa so'nggi paleolit davri yodgorliklari hamda Yaqin Sharq manzilgohlari oralig'ida joylashganligi sababli so'nggi paleolitning boshlanish davriga oid deb topildi. Go'yoki, fandagi Yevropa bilan Yaqin Sharq oralig'idagi bo'shliq to'ldirildi. Biroq, 2003-yilgi qazish ishlari natijasida, Obiraxmatning 16-madaniy qatlamidan 1, 3 va 10 yoshli bolalarning suyak qoldiqlari aniqlandi va ular antropologik jihatdan neandertal tipidagi gominidlarga xos ekanligi qayd etildi. Oqibatda, Obiraxmat materiallari o'rta paleolitning oxirlariga oid yodgorlik ekanligi yana bir bor o'z isbotini topdi va unga nisbatan "ilk so'nggi paleolit" iborasining qo'llanilishi asossiz ekanligi ma'lum bo'lib qoldi.

Obiraxmatning tosh industriyasi borasida tadqiqotchi A.G'. Muhammadiyev ilmiy izlanishlari davomida yangi fikrlarni bildirdi. Manzilgohda asosan manbai yaqinida joylashgan plitka holiday chaqmoqlashgan ohaktoshdan foydalanilgan [19]. A.G'. Muhammadiyev fikricha, asosan bitta turdagi xomashyodan foydalanilganlik holati R.X. Sulaymonovga muammo yuzasidan kengroq xulosalar berish imkonini bermagan bo'lsa-da, qo'llanilgan tahlil metodi xomashyodan foydalanish strategiyasini yoritishda alohida ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan [20]. Ushbu metod keyinchalik paleolitshunoslikning hamda xomashyo birliklari metodining tarkibiy qismi bo'lgan texnologik metodni ishlab chiqishga katta ta'sir ko'rsatdi.

R.X. Suleymanovning chaqmoqlash texnologiyasini tahlil qilish uslubi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Unda klassik formalizm belgi-xususiyatlarni aniq tavsiflashga intilish bilan uyg'unlashadi. O'z navbatida chaqmoqlash jarayoni ketma-ketligini o'rganish ishlab chiqarish haqida xulosa chiqarishning vositasi sifatida qaraladi hamda statistik tahlil orqali ma'lumotlar mustahkamlanadi. Bu yondoshuv nukleus hamda tanovarlarning belgi hamda metrik xususiyatlarini tahlil qilish orqali amalga oshiriladi [21].

Ma'lumki texnologik jarayonda artefaktlarning bir qismini texnik chiqindilar tashkil etib, R.X. Suleymanov birinchi bo'lib ularga e'tibor qaratgan. Shu bilan birga chaqmoqlash jarayonida buyumlar shaklining o'zgarib borish ketma-ketligi ham tahlil qilingan. Har ikkala xulosa chaqmoqlash texnikasi va uning xususiyatlarini tushunish imkonini berdi. Natijada tipologik metod doirasida tasniflanmay qolgan kolleksiya tarkibidagi ko'plab artefaktlar o'zining ilmiy tavsifini topdi. Bunda ma'lum turdagi artefaktlar nukleuslarni chaqmoqlashdagi texnik jarayon mahsuli ekanligi aniq belgilab berildi. A.G'. Muhammadiyevning bunday xulosalari bugungi kunda ishlab chiqarish jarayonining "texnologik zanjiri" to'liqligini baholashda, toshga ishlov berish bosqichlari va transportirovka usullarini yoritishda katta o'rin tutadi.

Toshkent vohasidagi o'rta paleolit davriga oid moddiy manbalar Ko'lbuloqning o'rta qatlamlaridan olindi. Manzilgoh 1962-yildan to 1990-yillar boshigacha bo'lgan vaqt davomida M.R. Qosimov tomonidan o'rganildi. 1994-yildan bugunga qadar bir qator xalqaro ekspeditsiyalar ham yodgorlikda izlanishlar olib bordi. Yodgorlikning o'rta paleolitga oid qatlamlari 1,3 m qalinlikdagi sel oqiziq-lari bilan bog'liq tosh siniqlari yotqiziq-larida, yer sathidan 90 sm chuqurlikda joylashgan. M.R. Qosimovning ma'lum qilishicha, bu qatlamlardan 8300 ta tosh buyum topilgan [22]. Uning industriyasiga ensiz proporsiyali va turli shakllardagi yirik uchirindilar xarakterlidir. Levallua texnikasida ishlangan yo'nilg'ilar ko'p emas. Nukleuslar orasida ba'zan haddan tashqari ishlov berilgan kichik hajmli gardishsimon o'zaklar ko'pchilikni tashkil etadi. To'plamning tosh qurollari orasida qirg'ichsimonlar mavjud va yirik retushli tishsimon hamda o'yib-kertib ishlangan qurollar ko'p uchraydi. Qirg'ichlarning uzunasiga, ko'ndalangiga ishlangan va boshqa shakllari bor. Shuningdek, ushbu qatlamlarda muste (o'rta paleolit) tipidagi paykonlar, kompozit qurollar, yo'nilg'ilar uchki qismlarida ishlangan qirg'ichchalar, kesgichlar va qo'l cho'qmorlari mavjud. Umuman, Ko'lbuloqning boshqa qatlamlari kabi o'rta paleolitga oid madaniy yotqiziq-lari ham O'rta Osiyoda o'xshashi yo'q industriyaga ega bo'lib, ular tishsimon muste madaniyatiga xos deb topilgan [23].

Ko'lbuloq manzilgohi vohadagi bir necha o'nlab paleolit davri ustaxonalari va xomashyo manbalariga yaqin joylashgan. Afsuski uzoq yillar davomida tadqiq etilishiga qaramay, manzilgohda xomashyo masalasi bilan bog'liq holatlar o'rganilmagan.

Bu borada ham yangi ma'lumotlarga tadqiqotchi A.G'. Muhammadiyev o'z e'tiborini qaratib, birgina M.R. Qosimov tomonidan olib borilgan qazish ishlari davomida 70 ming donadan ortiq artefakt topib, o'rganilganligini, xomashyo turlaridan foydalanish jarayoni yoki undagi xususiyatlar e'tiborga olinmaganligini qayd etadi [24]. Foydalanilgan xomashyo foiz ko'rsatkichi yodgorlikning barcha madaniy qatlamlari uchun umumiy holda qayd etilgan bo'lib, chaqmoqtosh 84,5 %, slanets 6,2 %, chaqmoqlashgan ohaktosh 2,5 %, kvars 1,8 %, kvarsit 1,6 %, xalsedon 1,5 %, obsidian, effudit, firizit va boshqa turlar 2,1 % ni tashkil etadi [25].

Xomashyo mahalliy hisoblanib, chaqmoqtosh, chaqmoqlashgan ohaktosh, kvars hamda kvarsit paleogen va bur davri yotqiziq-larida, Ko'lbuloqdan 1 km. masofada uchraydi. Bundan tashqari chaqmoqtosh va chaqmoqlashgan ohaktosh Qizilolmasoy va G'ishtsoy hududlarida ham uchraydi. Manzilgoh xomashyo manbaiga yaqin joylashgan bo'lsada, barcha madaniy qatlamlarda xomashyodan tejamkorlik bilan foydalanilgan. Ushbu xususiyat ko'plab nukleuslarning oxirgi darajagacha chaqmoqlanganlik, ba'zilar ikkilamchi ishlov berilib, qurolga aylantirilganlik holatlarida ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari sifatli tanovarlardan tashqari birlamchi, yarimbirlamchi uchirindilar, hamda texnik uchirindilarda ham qurollar tayyorlangan.

Kolleksiya tarkibida bir dona obsidian xomashyosidan olingan uchirindi uchraydi. M.R. Qosimov ushbu turdagi xomashyo G.F. Tetyuxinning og'zaki ma'lumotiga ko'ra Ohangoron daryosining bir qator nuqtalarida, Ko'lbuloqdan 20 km. uzoqlikdagi masofada uchrashini aytib o'tadi [26].

O'rta paleolit davriga oid yodgorliklar Zarafshon daryosi vodiysida ham mavjud bo'lib, ularga Omonqo'ton, Takalisoy, Ko'tirbuloq, Zirabuloq, Olmabuloq, kabi yodgorliklarni kiritish mumkin.

Zarafshon daryosi baland Tyanshan tog'laridan boshlanib, uzunligi 781 km ga teng. Hidrografik hamda gipsometrik jihatdan Zarafshon uch qismga ajraladi: Zarafshonning tog'li qismi (daryoning boshlanishidan to Panjikentgacha), Samarqand pasttekisligi (daryoning o'rta oqimi) va quyi qismi (kontinental delta). Hozirgacha ma'lum bo'lgan paleolit davriga oid barcha yodgorliklar Zarafshonning o'rta oqimida, ya'ni Samarqand pasttekisligida va uni o'rab turgan tog' va tog'oldi hududlarida joylashgan (Zarafshon va Turkiston tog' tizmalari).

Samarqand pasttekisligining paleoekologik landshafti ibtidoiy odamlar yashashi va taraqqiy qilishlari uchun juda qulay bo'lganligini bu yerdan topilgan ko'plab paleolit davri yodgorliklari tasdiqlaydi. Bu hudud o'rta paleolitning so'nggi davridan qadimgi odamlarning neandertal tiplari tomonidan bundan 50-60 ming yillar muqaddam o'zlashtirilgan. Samarqand pasttekisligidagi bu davrga oid yodgorliklarni ochiq tipdagi va g'or tipidagi manzilgohlariga ajratish mumkin.

Omonqo'ton g'ori Samarqand shahridan 45 km. janubroqda Chakululqalion tog'larida, dengiz sathidan 1300 m balandlikda joylashgan. G'or karstli va yo'lakli tipda. Unga kirish qismining eni 1,5 m. va balandligi 0,9 m. Madaniy qatlamlar g'orning kirish joyida to'plangan. Tadqiqotchilar

TARIX

tomonidan bu yerda gulxan va o'choqlarning izlari aniqlanib, faunistik materiallarning boy kolleksiyasi hamda tosh qurollar topilgan. Aniqlash mumkin bo'lgan suyak qoldiqlarining 60% muflonga tegishli [27]. Qo'ng'ir ayiq va morol suyaklari qoldiqlari mavjud. Bundan tashqari, bu joyda sibir bug'usi, sibir tog' echkisi, g'or shoqoli, tulki, qulon va yana bir yarim mingga yaqin sut emizuvchilarning suyak qoldiqlari topilgan. G'or qatlamlaridan olingan faunistik qoldiqlar tarkibida qushlarning ikki turi va cho'l toshbaqasi suyak qoldiqlari qayd etilgan. Paleozoologik materiallarga asoslanib, bu yerda o'sha davrda daraxtzorlar va butazorlarga tutash ochiq o'tloqzor bo'lgan deb aytish mumkin [28].

Ta'kidlash joizki, yodgorlikda har bitta tosh qurolga 80 ta hayvon suyaklari qoldiqlari to'g'ri keladi. Bu esa Omonqo'ton g'ori ovchilarning vaqtinchalik boshpanasi vazifasini o'tagan, deb faraz qilishga asos bo'ladi. G'orning kichik hajmdaligi ham yodgorlikning ana shunday funksional ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

O'rta paleolit davrida xomashyodan foydalanish muammosiga 1947-57 yillarda D.N. Lev Omonqo'ton manzilgohlarini o'rganish davomida to'xtalib o'tgan [29]. Yodgorlikda tosh qurollar yasashda ohaktosh, kvarts va dioritdan foydalanilgan. Foydalanilgan kvarts xomashyosi manbalari g'or-makon yaqinida mavjudligi, chaqmoqtosh hududida uchramasligi, faqat Taxi-Qoracha dovonida, g'ordan 3-4 km. janubda chaqmoqtosh manbalari uchrashi qayd etilgan. Tadqiqotchi g'or-makon sohiblari faqat ohaktosh, kvarts va diorit kabi mahalliy xomashyo turlari bilan cheklanib qolmaganligini, balki chaqmoqtosh kabi sifatli xomashyo manbalarini topish va ulardan foydalanishga harakat qilganligini ta'kidlab o'tadi.

Bundan tashqari, Samarqandda Takalisoy g'ori topilgan bo'lib, u N.X. Toshkenboyev tomonidan ochib o'rganilgan. Takalisoy g'ori Samarqand shahridan 50 km janubiy-sharqda dengiz sathidan 2000 m balandlikda joylashgan. G'or karstli bo'lib, marmarlashgan ohaktosh massivida hosil bo'lgan. Topilmalar g'orning ichidagi lyossimon loydan topilgan. Bu joydan ko'mir qoldiqlari bilan birga 3 ta uchirindi olingan.

Go'rdara g'ori Zarafshon tizmasining shimoliy etaklarida, Samarqand shahridan 75 km janubiy-sharqda joylashgan. Bu joydan hayvon suyaklari qoldiqlari bilan birga 4 ta chaqmoqtoshdan ishlangan qurollar topilgan. Yodgorlikning madaniy-xronologik talqini Takalisoy [30] g'oridagi kabi juda murakkabdir, chunki har ikkala yodgorliklardan ham materiallar juda kam topilgan.

Samarqand pasttekisligidagi ochiq tipdagi o'rta paleolit davri yodgorligi bu Qo'tirbuloq bo'lib, u Samarqand shahridan 100 km shimoliy-g'arbda, Charxin qishlog'i yaqinida joylashgan. Qo'tirbuloq manzilgohi Zarafshon daryosi o'rta oqimining tor tog' oldi vodiysida, Zirabuloq tog'lari etaklaridagi buloq atrofida joylashadi.

Qo'tirbuloq qatlamlaridan minglab tosh buyumlar bilan birga faunistik qoldiqlar ham topilgan, ularning deyarli yarmi (49,3%) otlarga tegishlidir. Shuningdek, bu yerda tur-ho'kiz, qulon va bug'ularning ham suyak qoldiqlari aniqlangan. Shunisi qiziqarliki, Qo'tirbuloq qatlamlaridan filning jag' suyagi bo'laklari aniqlangan va bu dastavval trogonteriy fili deb nomlangan va bu faunistik topilma yodgorlikning ilk pleystotsen davriga oidligidan dalolat berar edi. Hozirgi kunda topilma yodgorlikdan ancha qadimiy va u Qo'tirbuloq madaniy qatlamlariga tasodifan tushib qolgan yoki u ilk pleystotsen davri trogonteriy filining to'g'ridan to'g'ri avlodi hisoblangan xazar tipidagi mamontga tegishli deb xulosa qilingan [31].

Xomashyodan foydalanish masalalarini o'rganishda Zarafshon vohasida joylashgan Qo'tirbuloq va Zirabuloq yodgorliklarini ham ahamiyati katta.

Tadqiqotchilar har ikkala manzilgohda ham mahalliy xomashyodan foydalanilganligini ta'kidlashadi. Zirabuloq tog'lari shimoliy yonbag'rlarida joylashgan soy bo'ylarida slanets va chaqmoqtosh, shuningdek mergel qatlamlarida kulrang chaqmoqtosh manbalari aniqlangan. Ushbu xomashyo manbalari atrofida mustye davriga oid bir necha o'nlab nukleus va uchrindilar topilgan. Hudud relyefi ibtidoiy odamlar yashagan davrda hozirgidan deyarli farq qilmagan, soy yonbag'rlaridagi ochiq holdagi kichik chaqmoqtosh manbalari Qo'tirbuloq manzilgohi sohiblari uchun xomashyo manbalari vazifasini o'tagan. Shuningdek, manzilgoh kolleksiyasi asosini qayroqtoshlardan olingan birlamchi uchrindilar tashkil etib, manzilgohdan 6 km. shimolda joylashgan Zarafshon daryosi qayiri asosiy manba vazifasini bajargan. Qo'tirbuloq manzilgohida foydalanilgan xomashyo manbai butun hayot davomiyligida o'zgarmay kelgan. Topilgan

buyumlarning to'rtidan uch qismi ancha zich, mayda donador kvarsitsimon qumtoshdan yasalgan bo'lib, rangi deyarli qora, kulrang, ba'zan yashil tusda bo'lgan.

A.G'. Muhammadiyevning fikricha, xomashyo tanlovi texnika-tipologiya va butun Qo'tirbuloq tosh industriyasiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan [32]. Yodgorlikda zich amorf oq kvarsitdan yasalgan buyumlar katta o'rinni egallagan. Turli rangdagi chaqmoqtoshdan yasalgan buyumlar miqdori ko'p emas. Chaqmoqtoshdan yasalgan buyumlar o'lchami, tanlab olingan xomashyo xajmi kichik, o'zi esa plitkasimon metamorfoz xususiyatga ega bo'lganligidan dalolat beradi. Shuningdek unchalik mustahkam bo'lmagan cho'kma jinsli, ishlov berishga qulay chaqmoqlashgan ohaktosh, slanets va qumtoshdan foydalanilgan [33].

Qo'tirbuloq manzilgohi industriyasini o'rgangan tadqiqotchilar xomashyoning texnika-tipologiyaga ta'siri masalasiga to'xtalib o'tishgan. Kvarsitdan tayyorlangan buyumlar alohida tahlil qilingan. Kvarsit xomashyosi sifatining pastligi industriya ko'rinishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Xomashyo sifatining yodgorliklar industriyasiga ta'siri nukleuslar va ulardan olingan tanovarlar miqdoridagi nomutanosiblikda ham yaqqol namoyon bo'lgan. Kolleksiya kvarsitdan yasalgan ko'plab nukleuslarga kam sonli uchrindi va yo'nilg'alar to'g'ri keladi. Chaqmoqtosh va boshqa xomashyo turlarida esa kam sonli nukleuslarga ko'p sonli turli xil uchrindilar va yupqa uzun plastinalar to'g'ri keladi. Xomashyo turlaridan olingan artefaktlar miqdorida bu kabi farqlanish xususiyati xomashyoning texnika-tipologiyaga yaqqol ta'sirini ko'rsatib beradi.

Manzilgoh kolleksiyasida nukleuslar va uchrindilar o'rtasida bog'liqlik nisbiyligi qayd etilgan bo'lib [34], nukleuslarni chaqmoqlash uslublarining o'zgarib borishi ham xomashyoni tejash bilan bog'liq tadbirlardan biri bo'lishi mumkin. Shuningdek xomashyo imkon bergan hollarda radial va parallel chaqmoqlash uslubidagi nukleuslar yuzasi yon tomondan qushimcha ishlov berish orqali levallua tipidagi nukleuslarga aylantirilgan [35].

Qo'tirbuloq industriyasida kombinatsiyalashgan qurollar ko'rsatkichi ham yuqori bo'lib, 5% ni tashkil etadi. Industriyada kombinatsiyalashgan turdagi qurollar miqdorining ko'pligi [36] ibtidoiy odamlar tomonidan cheklangan miqdordagi xomashyodan imkon qadar foydalanishga bo'lgan intilishni ko'rsatadi.

Manzilgohda foydalanilgan xomashyoning industriyaga ta'siri masalasi keyinchalik ham boshqa tadqiqotchilar e'tiborida bo'lgan. Jumladan, T.Y. Grechkina va T.X. Tashkenbayev, R.X. Suleymanov hamda keyinchalik B.Q. Sayfullayevlar ham xomashyoning texnika-tipologiyaga ta'sirini o'rganishgan [37]. B.Q. Sayfullayevning xomashyo turlari kesimida chaqmoqlash texnikasining statistik tahlili natijalari e'tiborga loyiq [38] tadqiqotchi A.G'. Muhammadiyev tomonidan alohida qayd etiladi. A.G'. Muhammadiyevning fikricha, tadqiqotchi B.Q. Sayfullayev tomonidan qayd etilgan levallua tipidagi tig'lar bilan bog'liq holat alohida ahamiyatga ega. Kolleksiya tarkibida levallua tipidagi tig'lar olish uchun mo'ljallangan nukleuslarning chaqmoqlash yuzalarida uchburchak shakl yonlama ishlov berish orqali tayyorlangan bo'lsa, mavjud levallua tig'lari uzunasiga-konvergent holda olingan. YA'ni levallua tig'lar olishga mo'ljallab tayyorlangan nukleuslar levallua tipida olingan tig'larga mos emas [39]. Ushbu holat uzunasiga-konvergent holda olingan levallua tig'lari balki manzilgohga tayyor holda transportirovka qilinganligini taxmin qilish imkonini beradi.

O'rta paleolitga xos ko'plab materiallar Qizilqum hududlaridan ham topilgan. Biroq bular yig'ma materiallar bo'lib, madaniy qatlamlar saqlanmagan. Bundan tashqari, Qizilqumda o'rta paleolitga oid Ko'kcha [40] nomli toshga ishlov berish ustaxonasini ham shu davrga oidligi aniqlangan. Ushbu davr muammolariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, avvalo, paleolitning boshqa bosqichlarida bo'lgani kabi bu davrning ham aniq xronologik shkalasi ishlab chiqilmagan. Hatto dunyoga mashhur Teshiktosh g'orining ham aniq va tan olingan sanasi yo'q. Ma'lumki, Yevropada o'rta paleolit bundan 100 ming yillar burun boshlanib, 35 ming yillargacha, ya'ni zamonaviy tipdagi odam paydo bo'lgunga qadar davom etgan va bu davrda u yerda faqat neandertal tipidagi odamlar yashagan. Ammo, O'rta Osiyo hududi neandertal odami tomonidan bundan 50-60 ming yillar muqaddam o'zlashtirilgan, degan fikrlar ham mavjud [41]. Ayrim yodgorliklarning sanasi borasida turlicha talqinlar bor. Masalan, Qo'tirbuloq yodgorligi tadqiqotchilar tomonidan 60-70 ming yillar bilan davrlangan bo'lsa [42], 1990-yillarda amalga oshirilgan radiokarbon tahlillar uning sanasini 32 ming yillar bilan belgiladi [43]. Shuningdek, Zirabuloq topilmajoyi uni bevosita o'rgangan tadqiqotchilar tomonidan o'rta paleolit davri bilan belgilansa [44], keyingi tadqiqotchilar uning

TARIX

so'nggi paleolitga taalluqligini qayd etmoqda [45]. Bundan tashqari, yurtimizdagi ochiq tipdagi yodgorliklardan Qo'tirbuloq, Ko'lbuloq va boshqa manzilgohlarning geologik holatlari haqida ham turli talqinlar mavjud. Ularni bevosita o'rgangan tadqiqotchilar [46] madaniy qatlamlarni aralashmagan desalar, boshqalar [47] ularni aralashib ketgan holatda yotadi, degan fikrlarni bildiradilar.

XULOSA

O'rta paleolit davri yodgorliklarini davriy va madaniy mansubligi masalasida R.X. Suleymanov tomonidan ilgari surilgan fikrlarda O'rta Osiyo hududidagi ko'plab yodgorliklar bitta obiraxmat tipidagi yodgorliklar guruhiga birlashtirilgan edi. Oxirgi yillarda olib borilgan tadqiqotlar ham o'z vaqtida berilgan ushbu ilmiy xulosalarning to'g'ri ekanligini tasdiqladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Окладников А.П. Мустьерская стоянка в гроте Тешик-Таш в Узбекистане // КСИИМК. Вып. 2. 1939. – С. 36. Окладников А.П. Находка неандертальца в Узбекистане // ВДИ. № 1. 1939а. – С. 78; Окладников А.П. Исследование палеолитической пещеры Тешик-Таш (предварительное сообщение) // Труды Узб. Филиала АН СССР, вып. 1. 1940. – С. 180; Окладников А.П. Неандертальский человек и следы его культуры в Средней Азии (предварительные данные и выводы о раскопках в гроте Тешик-Таш) // СА. Вып. 6. 1940а. – С. 56; Окладников А.П. Первобытный человек Узбекистана // Наука и жизнь. № 1. 1940б. – С. 55; Окладников А.П. Исследование мустьерской стоянки и погребения неандертальца в гроте Тешик-Таш, Южный Узбекистан (Средняя Азия) // Тешик-Таш. Палеолитический человек. М. 1949а. – С. 7; Там же. – С. 9; Movius H. L. Paleolithic and Mesolithic sites in Soviet Central Asia // Proceeding of the American Philosophical Society. vol. 57. 1953. – P. 24; Bordes F. L 'Industrie moustérienne de Teshic-Tash Affinites et age probable L'Anthropologie. t. 59 № 3/4, 1955. – P. 46; Ранов В.А., Несмеянов С.А. Палеолит и стратиграфия антропогена Средней Азии // Душанбе. 1973. – С. 74; Абрамова З.А. Грот Тешик-Таш – памятник мирового значения // Проблемы взаимосвязи природы и общества в каменном веке Средней Азии. Ташкент. 1988. – С. 23; Григорьев Г.П. Тешик-Таш и мустье Средней Азии 1988 // Проблемы взаимосвязи природы и общества в каменном веке Средней Азии. Ташкент. 1988. – С. 34.
2. Громова В.И. Плейстоценовая фауна млекопитающих из грота Тешик-Таш, Южный Узбекистан // Тешик-Таш. Палеолитический человек. М. 1949. – Р. 44.
3. Окладников А.П. Исследование мустьерской стоянки и погребения неандертальца в гроте Тешик-Таш, Южный Узбекистан (Средняя Азия) // Тешик-Таш. Палеолитический человек. М. 1949 а. – С. 67.
4. Сулова В.П. Плейстоценовая орнитофауна из грота Тешик-Таш, Южный Узбекистан // Тешик-Таш. Палеолитический человек. М. 1949. – С. 34.
5. Muhammadiev A.G'. "O'rta paleolit davri xomashyodan foydalanish strategiyalari (Muzbel, Xatak va Angillak yodgorliklari materiallari asosida)" // Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent. 2022. – B. 51.
6. Окладников А.П. Исследование мустьерской стоянки и погребения неандертальца в гроте Тешик-Таш, Южный Узбекистан (Средняя Азия) // Тешик-Таш. Палеолитический человек. – М.: Изд-во МГУ, 1949. – С. 49-61.
7. Muhammadiev A.G'. "O'rta paleolit davri xomashyodan foydalanish strategiyalari (Muzbel, Xatak va Angillak yodgorliklari materiallari asosida)" // Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent. 2022. – B. 18.
8. Окладников А.П. Неандертальский человек и следы его культуры в Средней Азии (Предварительные данные и выводы о раскопках в гроте Тешик-Таш) // СА. Вып. 6. М., 1949. – С. 14; Ташкенбаев Н.Х., Сулейманов Р.Х. Культура древнекаменного века долины Зарафшана. Ташкент, 1980. – С. 76.
9. Ранов В.А., Несмеянов С.А. Палеолит и стратиграфия антропогена Средней Азии. Душанбе, 1973. – С. 94.
10. Bordes F. L'industrie moustérienne de Teshic-Tash. Affinites et age probable. L'Anthropologie. T.59. №3-4. – P. 46.
11. Громова В.И. Плейстоценовая фауна млекопитающих из грота Тешик-Таш, Южный Узбекистан // Тешик-Таш. Палеолитический человек. М., 1949. – С. 99.
12. Jobere J. Moustérienne en Europe. Paris, 2001. – P. 36.
13. Окладников А.П. Амир-Темир новый памятник каменного века в горах Байсун-Тай (Узбекистан) // КСИИМК. Вып. 28. 1940 в. – С. 67; Окладников А.П. Амир-Темир новый памятник каменного века в горах Байсун-Тай (Узбекистан) // КСИИМК. Вып. 28. 1940 в. – С. 68.
14. Береговая Н.А. Палеолитические местонахождения СССР. МИА. № 81. 1960. – С. 42; Окладников А.П. Исследование мустьерской стоянки и погребения неандертальца в гроте Тешик-Таш, Южный Узбекистан (Средняя Азия) // Тешик-Таш. Палеолитический человек. М. 1949 а. – С. 70.
15. Ранов В.А., Несмеянов С.А. Палеолит и стратиграфия антропогена Средней Азии // Душанбе. 1973. – С. 64-66.
16. Насриддинов Х.К. Грот Оби Рахмат // ИМКУ. Вып. 5. 1964. – С. 7; Сулайманов Р.Х. Статистическое изучение культуры грота Оби-Рахмат. Ташкент. 1972. – С. 98; Ранов В.А., Несмеянов С.А. Палеолит и стратиграфия антропогена Средней Азии // Душанбе. 1973. – С. 13.
17. Деревянко А.П., Исламов У.И., Петрин В.Т., Сулейманов Р.Х., Алимов К., Кривошапкин А.И., Аношкин А.А., Милютин К.И., Сайфуллаев Б.К. Исследования грота Оби Рахмат (Республика Узбекистан) в 1999 г.

- // Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. Изд-во ИАЭТ СО РАН, Новосибирск. 1999. – С. 44-66. Деревянко А.П., А.И. Кривошапкин, А.А. Анойкин, У.И. Исламов, Петрин В.Т., Сулейманов Р.Х., Сайфуллаев Б.К. Ранний верхний палеолит Узбекистана: Индустрия грота Оби Рахмат (по материалам слоев 2-14) // Археология, этнография и антропология Евразии 4 (8). Новосибирск. 2001. – С. 144. Деревянко А.П., Анойкин А.А., Кривошапкин А.И., Милютин К.И., Исламов У.И., Сайфуллаев Б.К. Новые данные о палеолитических индустриях пещеры Пальтау (Республика Узбекистан) // Проблемы каменного века Средней и Центральной Азии. Изд-во Института археологии и этнографии СО РАН. Новосибирск. 2002. –С. 124. Деревянко А.П., Кривошапкин А.И., Анойкин А.А., Милютин К.И., Исламов У.И., Сайфуллаев Б.К. Исследование грота Оби Рахмат (Республика Узбекистан) // Проблемы каменного века Средней и Центральной Азии. Изд-во Института археологии и этнографии СО РАН. 2002. – С. 44. Деревянко А.П., Исламов У.И., 2003. Деревянко А.П., Исламов У.И., Новосибирск. 2004. – С. 158.
18. Vandermeersch B. Dictionnaire de la Préhistoire. Universitaires de France, Paris, 1988. – P. 61 et 516.
19. Сулейманов Р. Х. Статистическое изучение культуры грота Оби-Рахмат. – Ташкент: Фан, 1972. – С. 6.
20. Muhammadiev A.G'. "O'rta paleolit davri xomashyodan foydalanish strategiyalari (Muzbel, Xatak va Angillak yodgorliklari materiallari asosida)" // Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent. 2022. – B. 14-15.
21. Сулейманов Р. Х. Статистическое изучение культуры грота Оби-Рахмат. – Ташкент: Фан, 1972. – С. 77, 85, 88, 96.
22. Касымов М.Р., Годин М.Х., Худайбердиев Т.Н. Домустьерские культуры на территории Узбекистана //Хроностратиграфия палеолита Северной, Центральной и Восточной Азии и Америки. Новосибирск. 1992. – С. 38-49.
23. Касымов М.Р., Годин М.Х., Худайбердиев Т.Н. Домустьерские культуры на территории Узбекистана //Хроностратиграфия палеолита Северной, Центральной и Восточной Азии и Америки. Новосибирск. 1992. – С. 38-49.
24. Muhammadiev A.G'. "O'rta paleolit davri xomashyodan foydalanish strategiyalari (Muzbel, Xatak va Angillak yodgorliklari materiallari asosida)" // Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent. 2022. – B. 15.
25. Касымов М.Р. Проблемы палеолита Средней Азии и Южного Казахстана // Дисс. на соис. докт. ист. наук. Новосибирск, 1990. – С. 109.
26. Касымов М.Р. Проблемы палеолита Средней Азии и Южного Казахстана // Дисс. на соис. докт. ист. наук. Новосибирск, 1990. – С. 110-113.
27. Лев Д.Н. Древний палеолит в Аман-Кутане. (предварительное сообщение). Самарканд. 1949. -С. 12. Лев Д.Н. Древний палеолит в Аман-Кутане. (Исследования 1953-1954 гг.) // Труды Узбекского го-С. Ун-та. Нов. серия. Вып. 61. 1956. – С 45.
28. Бибилова В.И. Некоторые замечания по фауне из мустьерской пещеры Аман-Кутан // СА. № 3. 1958. – С. 12.
29. Лев Д.Н. Поселение древнекаменного века в Самарканде. Исследования 1958-1960 гг. // Труды самаркандского государственного университета. Новая серия. – Самарканд, 1964. – Вып. 135; Д. Н. Лев Археологические исследования Самаркандского государственного университета в 1955-1956 гг. //Труды Самаркандского Государственного университета им. Алишера Навои. Вып. 101. Самарканд, 1960. – С. 10; Лев Д. Н. Дреаный палеолит в Аман-Кутане (предварительное сообщение) //Труды Самаркандского Государственного университета им. Алишера Навои. Вып. 39. Самарканд, 1949. – С. 42.
30. Ташкенбаев Н.Х. Новые памятники древнекаменного века в Самаркандской области // ОНУ. № 11. 1971. – С. 16.
31. Ташкенбаев Н.Х. Новые памятники древнекаменного века в Самаркандской области // ОНУ. № 11. 1971. – С.12. Ташкенбаев Н.Х. Исследование новой мустьерской стоянки Кутурбулак (Самаркандская область) // Каменный век Средней Азии и Казахстана. Ташкент. 1972. – С. 146. Ташкенбаев Н.Х. О новых памятниках эпохи палеолита на территории Самаркандской области // УСА. Вып. 2. 1972а. – С. 11. Ташкенбаев Н.Х. Новая палеолитическая стоянка Кутурбулак // ИМКУ. Вып. 10. 1973. – С. 23.
32. Muhammadiev A.G'. "O'rta paleolit davri xomashyodan foydalanish strategiyalari (Muzbel, Xatak va Angillak yodgorliklari materiallari asosida)" // Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent. 2022. – B. 11, 16.
33. Ташкенбаев Н.Х., Сулейманов Р. Х. Культура доевнекаменного века долины Зарафшана. Ташкент. Фан. 1980. – С. 11, 20-21.
34. Ташкенбаев Н.Х., Сулейманов Р. Х. Культура древнекаменного века долины Зарафшана. Ташкент. Фан. 1980. – С. 54-56.
35. Ташкенбаев Н.Х., Сулейманов Р. Х. Культура древнекаменного века долины Зарафшана. Ташкент. Фан. 1980. – С. 36-38.
36. Ташкенбаев Н.Х., Сулейманов Р. Х. Культура доевнекаменного века долины Зарафшана. Ташкент. Фан. 1980. – С. 73.
37. Гречкина Т. Ю., Ташкенбаев Н. Х. К вопросу о кварцевых изделиях Кутурбулака (3 слой) // ИМКУ. – Ташкент. 1990. №23. – С. 130-139.; Сайфуллаев Б.К. Роль сырья в развитии техники обработки камня в Кутурбулаке // ИМКУ. – Ташкент. 2008. №36. – С. 10-14.
38. Сайфуллаев Б. К., Палеолит долины р. Зарафшан и Северо-Восточных Кызылкумов (технико-типологическое исследование). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Самарканд. 2002. – С. 13-15.

TARIX

39. Сайфуллаев Б. К., Палеолит долины р. Зарафшан и Северо-Восточных Кызылкумов (технико-типологическое исследование). Диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Самарканд. 2002. – С. 47-48.
40. Виноградов А. Б. Древние охотники и рыбаловы Среднеазиатского междуречья., М. Наука, 1981. – С. 46. Брунет Ф., Хужаназаров М.М., Сайфуллаев Б.К. Среднепалеолитическая мастерская Кукча в Кызылкумах // Научный отчет о работе Франко-Узбекской археологической экспедиции в 2005 г в Акчадарье. Самарканд, 2006. – С. 41-65.
41. Jobere J. Moustérienne en Europe. Paris. 2001. – P. 36.
42. Ташкенбаев Н.Х., Сулейманов Р.Х. Культура древнекаменного века долины Зарафшана. Ташкент. 1980. – С. 16.
43. Shymczak et al. Kuturbulak Revisited. A middle Paleolithic Site in Zeravshan River valley, Uzbekistan. Central Asia // Prohistoric Studies, vol. 1, 2000. – P. 135.
44. Ташкенбаев Н.Х., Сулейманов Р.Х. Культура древнекаменного века долины Зарафшана. Ташкент. 1980. – С. 171.
45. Сайфуллаев Б.К. Палеолит долины реки Зарафшана и Северо-Восточных Кызылкумов. Автореф. Канд. Дис-С. Самарканд. 2003. – С. 17.
46. Касымов М.Р. Проблемы палеолита Средней Азии и Южного Казахстана. Автореферат докт. Дисс. Новосибирск. 1990. – С. 13. Ранов В.А., Несмеянов С.А. Палеолит и стратиграфия антропогена Средней Азии // Душанбе. 1973. – С. 94.
47. Ташкенбаев Н.Х., Сулейманов Р.Х. Культура древнекаменного века долины Зарафшана. Ташкент. 1980. – С. 14.